

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI MAQOL VA MATALLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7814163>

Tursunov Mirzohid Ikromjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi aforizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari, maqollarning jamiyat va davlat hayotida tutgan o‘rni yoritilgan. Asarda qo‘llangan aforizmlarning bugungi kun uchun ahamiyati, ularning xalq dunyoqarashini ifodalovchi jihatlari alohida ta’kidlangan. Maqolada asarda keltirilgan aforizmlarning badiiy qiymati, asar muallifining o‘ziga xos o‘xshatishlardan, metaforalardan va boshqa badiiy vositalardan mohirona foydalanganligiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: aforizm, maqol, hikmatli so‘z, bilim, zakovat, dono, nodon, ko‘ngil, dunyo.

Aforizmlar o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlar tomonidan yaratilgan hikmatlar bo‘lib, ularning negizida xalq donishmandligi yotadi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida mazmunan turkiy tillarda keng yoyilgan maqollar va matallar keltirilgan. Ushbu barqaror birikmalar bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida haqiqatdan ham xalq maqollarining juda katta hajmdagi namunalari jamlangan. Albatta, ular bevosita og‘zaki ijodda uchraydigan shaklda bo‘lmasligi mumkin. Adiblar xalq maqollaridan foydalanishda bir necha xil usullarni qo‘llashadi. Odatda, bularni muxtasar holda shunday ifodalash mumkin:

1. Xalq og‘zaki ijodida qanday shaklda bo‘lsa, ushbu shakllarni hech bir o‘zgarishsiz holda qo‘llash.

2. Xalq og‘zaki ijodida uchraydigan maqolning asosiy qismlarini saqlagan holda unga ayrim juz‘iy o‘zgartishlar kiritgan holda qo‘llash.

3. Xalq og‘zaki ijodidagi maqollarning mazmunini saqlagan holda, bu mazmunni ifodalaydigan o‘ziga xos ifoda tarzlaridan foydalanish.

“Qutadg‘u bilig”dagi bir qator aforizmlarda hayotiy tajriba asosidagi hikmatlar aks etgan. Bunday aforizmlarda xulosa to‘g‘ridan to‘g‘ri tinglovchi hukmiga havola qilinadi.

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsar, O‘lim kelib tutmaguncha o‘z tarzini o‘zgartirmaydi¹⁴
(866-bayt)

Misralarda ifodalangan g‘oya bugungi kundagi *Sut bilan kirgan jon bilan chiqar¹⁵* maqoliga to‘g‘ri keladi. Bu aforizm psixologik, genetik asosga ega bo‘lib, inson tabiati,

¹⁴ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (нашрга тайёрловчи Каримов Қ.) –Тошкент:Фан,1971.

¹⁵ O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent,2005. B-79

ruhiyatining murakkabligi bilan belgilanadi. Inson olami, ichki dunyosi sonsiz kechinmalar, tuyg'ular jamlanmasi sifatida bir qator belgilarga ega bo'lib, ular nasldan naslga o'tadi. Shu bois inson tabiati, ruhiyatini, fe'l-atvorini tabiiy, tug'ma, o'zgarmas belgilar hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan xususiyatlar tashkil etadi. Mazkur aforizmda inson tabiatining o'zgarmas, tug'ma belgilari, genetik qirralari nazarda tutilgan. *Sut* leksemasi "tug'ilish" va *jon* "o'lim" tushunchalari bilan bog'liq holda o'zaro mantiqiy oppozitsiyani hosil qilib, ta'sirchanlikka xizmat qilgan. Mijozga aralashib yaratilgan qiliq, o'lim buzmaguncha also buzilmaydi. Ona qornida vujud bo'lgan qiliq, odat, qora yer qa'rida ketadi. Agar yaxshi kishining yomondan do'sti bo'lsa, yaxshining qiliqlari ham shuning tengida yomonga aylanadi.

Yusuf Xos Hojib yaratgan asar pandnoma, didaktik yo'nalishda bo'lganligi, ya'ni adib o'z fikr-mulohazalarini jamiyatning muayyan bir tabaqalari, ayniqsa onglilik darajasi, hayotiy mushohadasi teran va tiyrak bo'lganlarga mo'ljallanganligi uchun ham unga «voqelik haqida xalqning hukmi, xulosasi» nihoyatda qo'l keladi. Adib bilim va bilimdonlikni targ'ib va tashviq qilgan ekan, bu maqsadi yo'lida xalq maqolining yordamga kelishini aniq tasavvur eta oladi. Shuning uchun ham:

Zakovat qadrini ham zakovatli (kishi) biladi,

Dono bilim sotsa, bilimli oladi maqolini ishga soladi.

Ushbu maqolning hozirgi ko'rinishlaridan biri «Zar qadrini zargar bilar, misgar neni bilar» shaklida mavjud. Bilimli inson doimo elning ardog'ida bo'ladi, bilimi va hunari bor bo'lgan inson elda hech qachon hor bo'lmaydi. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Ilmdan hali hech kim zarar ko'rgan emas, ilmni egallab olish esa bir san'atdir degan ma'no ifodalangan.

Masalda keladigan juda eski ta'bir bor,

Otaning o'rni va oti o'g'ilga qoladi. (107-bayt)

Bu yerda «Otaning o'rni va oti o'g'ilga qoladi» degan maqol qo'llanmoqda. Ushbu maqolning o'zbek tilida «*Ot o'rnini toy bosar, Ota o'rnini - o'g'il*», «*Ota hunari bolaga meros*»¹⁶ shaklidagi ko'rinishlari ham mavjud. Ushbu maqol orqali ota-bobolarning g'ayratli, jasoratli, dovyurak, kata-katta ishlarga qo'l uradigan, hech narsadan qaytmaydigan dovyurak inson bo'lganlari haqida, ularning vorislari ham ota-bobolariga o'xshab el uchun xizmat qiladigan dovyurak inson bo'lishi haqida pandnomadir.

Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida mazkur maqolning o'ziga xos ko'rinishlarini keltirgan. Jumladan, u yerda «*Uluq yag'iri o'g'ulqa qalir – ot kuragidagi yag'ir bolalariga meros bo'lib qoladi*» degan maqol mavjud. «Kalyamanqara va Papamqara» yodgorligida «*Qang qazg'ansar, o'g'ul uchun temazmu*» shaklidagi maqol bor. «Qadimgi turkiy til lug'atida «qazg'an» so'zi «olmoq», «erishmoq» tarzida izohlanadi. Shunday bo'lgach, yuqoridagi maqol «ota qozongan narsa, o'g'il uchun

¹⁶O'zbek xalq maqollar. "SHARQ" nashriyoti. Toshkent – 2005. 298-b.

emasmi?» tarzida tabdil qilinishi mumkin. Agar bu ifodadagi oxirgi so'z «emasmi?» olib tashlansa, nazarimizda qadimiy maqolning asl shakliga yaqin bo'lgan variant yuzaga keladi. Bu variant esa « Qutadg'u bilig» muallifi qo'llayotgan shaklga juda yaqindir.

Bularning barchasi adibning xalq maqollaridan juda o'ylab, o'z o'rnida va muayyan badiiy-estetik vazifalarni ko'zlab, qo'llaganligining juda yorqin dalili bo'la oladi. Yana bir boshqa maqolni ham kuzatish imkonimiz bor. Bu maqol «Devonu lug'otit turk»da shunday ko'rinishga ega:

«Pushmaz er bo'z qush tutar, evmas er o'rung qush tutar – ishda siqilmaydigan odam oq lochini ham tutadi - shoshilmagan odam eng yaxshi bozini – lochini ovlaydi». Endi « Qutadg'u bilig»dagi shunga bog'liq bo'lgan misralarni kuzataylik:

Kishi sabr qilsa, o'z tilagini topadi,

Sabr qilib turguvchi kishi oqqush tutadi.

Ushbu maqolning hozirgi ko'rinishlari “Sabr tagi – sariq oltin” , “Sabr qilsang, g'o'radan holva bitar, Besabrlar o'z oyog'idan yitar¹⁷” shakllarida mavjuddir. Bu maqol orqali esa har bir ishni shoshmasdan bajarish kerakligi, shoshib bajarilgan ish esa puxta emas, tez fursatda boshga balo keltirishi mumkinligi ifodalanmoqda.

Ko'p tingla, oz so'zla.

Ko'p o'yla, bir so'yla.

Ko'p o'yla, oz so'yla.

Ayni shu maqollarning qadimiy variantlari XI asr so'zlashuv tilida ham ko'p bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Rizqli, mard kishi uchun mol-dunyo (hech) kamaymaydi, Tug'ilgan [ya'ni bunyod bo'lgan] oqqush uchun don (hech) kamaymaydi (2020-bayt)

Ushbu aforizm mazmuni bugungi kunda ham qo'llanayotgan Har kim o'z rizqi bilan tug'iladi¹⁸ maqoliga hamohangdir. Sharq pedagogikasida har kimning o'z rizqi bilan tug'ilishi, serfarzand oilalarda har bir bolaning rizqi borligi, Olloh uni rizqi bilan yaratganligi haqidagi ko'plab rivoyatlar, hikmatlar uchraydi. Mazkur aforizm ham jonzotlarning rizqi bilan yaratilganligi ta'kidlangan. Shuning barobarida, birovning nasibasi birovga yuqmasligi, har kim o'z nasibasiga yarasha ne'matga ega bo'lishi haqidagi botiniy mazmun ham yashiringan. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida shunga o'xshash maqolni ham uchratishimiz mumkin:”Og'ilxonada buzoq tug'ilsa, ariq bo'yida o't unadi”. Chaqaloq tug'ilganidan boshlab uning rizqi butun dunyoga sochiladi.U butun umr mobaynida ana shu rizqini terib yuradi. Olloh tomonidan berilgan rizqni hech kim tortib ololmaydi.

Ayrim aforizmlarda hayot, turmush tajribasi asosidagi xulosalar shunchaki hukm tarzida bayon qilinib qolmasdan, natija ta'kidlanadi, tinglovchi nasihat asosida da'vat qilinadi:

¹⁷ O'zbek xalq maqollar. “SHARQ” nashriyoti. Toshkent – 2005. 218-b

¹⁸ O'zbek xalq maqollari.-Toshkent,2016.

Qoraga yaqinlashma, ey asli oq, Oqqa qora tez yuqadi, ko'ring (4136-bayt)

Bu aforizm Yomonga yaqinlashsang, balosi yuqar, Qozonga yaqinlashsang — qorasi maqoli mazmuniga to'g'ri keladi. Aforizmda sharq rivoyat, maqollaridagi nasihat mazmuni aks etgan. Ushbu aforizm Yaxshi bilan yurding – yetding murodga, yomon bilan yurding – qolding uyatga maqoli mazmuniga mos keladi. Bu o'rinda kishiga muhitning ta'siri qanchalik muhimligini aytib o'tishimiz mumkin. Xalqimizda “Do'sting kimligini aytsang, men sening kimligingni aytaman” degan maqol ham mavjud. Yomonga aralashgan kishining xulqi yomon barobarida yomon bo'ladi. Inson doimo yaxshi odamlar bilan do'st tutinsa, yaxshi odamlar davrasida yursa, uning o'zi ham, ichki dunyosi ham ezgulikka to'lib boraveradi.

Kishi ko'ngli tubsiz dengiz kabidir,

Bilim inju kabi (uning) tubida yotadi (208-bayt)

Yuqoridagi baytda inson ko'ngli tubsiz dengizga qiyos qilinadi. Bilim esa ana shu dengiz tubidagi injuga o'xshatiladi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul -lug'atayn” asarida ham mana shu qarashlarga yaqin fikrlar qayd etilgan:

” ... so'z bir dur bo'lib, uning daryosi ko'ngildir. Ko'ngil shunday bir manzilki, unda katta-kichik ma'nolar mujassamdir. Bu shunga o'xshaydiki, gavhar daryodan g'avvos yordamida chiqariladi, uning qiymati esa, toshiga qarab ma'lum bo'ladi. So'z duri ham ko'ngildan so'zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o'zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi¹⁹”.

Zakovat ko'rki so'zdir, bu tilning ko'rki so'zdir,

Kishining ko'rki yuzdir, bu yuzning ko'rki ko'zdir (271-bayt)

Inson aql-zakovatining ifodasi uning so'zlarida aks etadi. Kishining qanday so'zlashiga qarab uning bilimi, dunyoqarashini bilib olsa bo'ladi. Shuning uchun ham zakovatning ko'rki, bezagi so'z bo'lganidek, insonning ko'rki yuz, bu yuzning ko'rki ko'zdir. Inson o'z so'zini tili orqali so'zlaydi, so'zi yaxshi bo'lsa, yuzi suvlanadi, ya'ni obro' topadi.

Kimki ishda shoshilsa, ilgarilasa, u kech qoladi,

Shoshilib qilingan ishlar oqibati ayanchli bo'ladi (543-bayt)

Shoshib qilingan ish har doim muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shoshilib qilingan ovqat zaharga aylanadi. Shuning uchun ham barcha ishni hotirjamlik bilan amalga oshirish kerak. Shoshqaloqlik barcha adashgan kishilarning ishidir. Ehtiyotkorlik esa barcha ezgu kishilar tutadigan yo'ldir.

Qachon qahring kelsa, o'zingni tut, sabrli bo'l,

Sabrli kishining sevinchi oldida (1304-bayt)

Kishi sabr qilsa buzilgan ishlari to'g'irlanadi. Kishi sabr qilsa, o'z tilagini topadi. Insonning hayotida biror bir mashaqqat, qayg'u-alami bo'lsa, ularga sabr qilsa, bu mashaqqatlar ortidan shodlik va sevinchlar keladi. Sabr qilmoq insonlarning

¹⁹ .Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev). 1-bet

ziynatidir. Sabr bilan kishi bamisoli ko'kka ham yo'l topadi. Sabrli kishi murod-maqсадiga erishadi. Kishining jahli chiqqanda aqli ketadi. Qahri kelgandaham o'zini tuta biladigan, o'zini boshqara oladigan insonlar irodali insonlardir.

Nopok narsani xalq suv bilan yuvib poklaydi,

Agar suv iflolsansa, u nima bilan yuvib poklanadi?(2074-bayt)

Suv-hayot manbai. Suv qayerga borsa o'sha yerda anvoyi ne'matlar unadi. Inson oziq-ovqatsiz yashay oladi, ammo suvsiz yashay olmaydi. Inson suv bilan o'zini poklaydi, ammo suv iflolsansa, uni kim tozalaydi? Bu o'rinda muallif insonlarni tabiatni asrab-avaylashga, uni ifloslantirmaslikka da'vat etadi. Chunki tabiat qonunlari buzilsa, butun insoniyat ham halok bo'ladi. Bugungi kunda mana shu qonuniyat buzilmoqda. Suvga turli xil chiqindilar tashlanmoqda, natijada atrof-muhit zarar ko'rmoqda. Buning natijasida turli xil suv toshqinlari, zilzilalar sodir bo'lmoqda. Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, suvni asrab-avaylash haqida muqaddas manbaarimizda aytib o'tilgan.

Qaysi narsaga ko'p mehnat qo'shilsa,

O'sha narsa sevimli, hamma(narsa)dan aziz bo'ladi (2799-bayt)

Kishi qaysi narsaga umrini sarf qilsa, o'sha narsa u uchun shirin jon barobarida sevimli bo'ladi. Inson nimagadir mashaqqat bilan, qiynalib erishsa, ana o'sha erishgan narsasi u uchun qadrlil bo'ladi. Kishining mehnati behuda ketsa, u uzoq yillar ana shu mehnatiga achinadi. Osonlik bilan erishilgan narsa beqadr bo'ladi.

Qarilikning ishlarini yigitlikda qilgin,

Qarigach kuch ketadi, yosh yetishmaydi (4588-bayt)

Inson umri yeldek o'tib ketadi. Bir nafas esgan shamol misoli vaqtni tutib bo'lmaydi. Inson qarigach, belidan quvvati, oyoqdan madori, ko'zidan nuri ketadi. Shuning uchun qarilikning ishlarini ham yoshikda bajarish zarur. Kishi umrim behuda o'tmasin, qariganimda afsus chekmayin desa, yoshligida kasb-hunar o'rganishi, ilm olishi zarur. Ana shunda yoshlikda olingan bilim va egallangan kasb-hunarning farog'atini qariganda ko'radi.

Uy olmoqni istasang, qo'shnilarini surishtir,

Yer olmoqni istasang, suvini surishtir (4444-bayt)

O'zbek xalqida "Bir qizga yetti qo'shni ota-ona", "Hovli olma qo'shni ol", "Yomon qo'shni yovdan yomon"²⁰ kabi maqollar mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, turkiy xalqlarda qo'shni juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" asarida qo'shni masalasiga katta e'tibor bergan. Biror bir joydan uy olishni istagan kishi, avvalo, qo'shnilarni surishtirishi kerakligi aytib o'tilgan. Chunki qo'shni yomon bo'lsa, kishida halovat bo'lmaydi. Yaxshi qo'shni esa qarindoshdan ham azizroq bo'ladi.

Kaltak yarasi bitadi, tez esdan chiqadi,

Til bilan so'ksa bitmaydi, zahri abadiy qoladi (2541-bayt)

²⁰ O'zbek xalq maqollari.-Toshkent, 2005. B-129

Asarda keltirilgan bu aforizm o'zbek xalqiga ma'lum va mashhur bo'lgan "Tig' jarohati bitar, til jarohati bitmas" maqoliga to'raligicha mos tushadi. Bundan ko'rinib turibdiki, "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan aforizmlar bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Qutadg'u bilig"dagi maqol va matallarning lingvistik qiymatini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- hikmatli so'zlar muayyan tajribaga asoslanishi, ijtimoiy turmush tarzidagi voqelikka aloqador bo'lishi bilan maqollarga o'xshaydi, ijodkorning individual yondashuvi bilan ulardan farqlanadi;

-matallar tarkibida xalq madaniyati, dunyoqarashiga xos tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklar kuzatiladi. Shu bois matallar milliy qadriyatlarni, madaniy munosabatlarni aks ettirishda ahamiyatlidir;

-hikmatli so'zlarda muayyan tilning qadimgi taraqqiyot bosqichlariga xos leksik birliklar saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn (nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev). 1-bet
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. –Тошкент, 1963.
3. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи –Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (нашрга тайёрловчи Каримов Қ.) – Тошкент:Фан, 1971.
5. Resid Rahmeti Arat. Kutadgu bilig (index). –Istanbul, 1979.
6. O'zbek xalq maqollari. -Toshkent, 2005.